Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Hilola Xujaniyazova – katta o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, Uzbekiston)
E-mail: hilola.x.t@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-9537-0339

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA YURIDIK NUTQNING FUNKSIONAL-KOMMUNIKATIV TABIATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik nutqning funksional-kommunikativ tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sud nutqining janriy xususiyatlari, yuridik ritorikaning pragmatik vazifalari hamda nutqiy aktlarning huquqiy diskursdagi o‘rni yoritilgan. Ayblov, himoya va sudya nutqlarida qo‘llaniladigan performativ hamda noperformativ konstruksiyalarning kommunikativ ta’siri qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek sud diskursida leksik-sintaktik vositalarning milliy huquqiy an’ana va ritorik madaniyat bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot yuridik ritorikaning sud qarorlarini shakllantirishdagi funksional mexanizm sifatidagi ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: yuridik nutq, yuridik ritorika, sud diskursi, kommunikativ funksiya, nutqiy akt, performativ birliklar, sud notiqligi, pragmatika.

Khilola Khujaniyazova – senior teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

FUNCTIONAL-COMMUNICATIVE NATURE OF LEGAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. This article examines the functional and communicative nature of legal speech in English and Uzbek languages. The study analyzes the genre characteristics of courtroom speech, the pragmatic functions of legal rhetoric, and the role of speech acts in legal discourse. The communicative influence of performative and non-performative constructions used in prosecutorial, defensive, and judicial speeches is comparatively investigated. In addition, the article highlights the connection between lexical-syntactic means and national legal traditions as well as rhetorical culture in English and Uzbek courtroom discourse. The research substantiates the importance of legal rhetoric as a functional mechanism in shaping judicial decisions.

Keywords: legal speech, legal rhetoric, courtroom discourse, communicative function, speech act, performative units, judicial oratory, pragmatics.

Хилола Хужаниязова – старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ФУНКЦИОНАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНАЯ ПРИРОДА ЮРИДИЧЕСКОЙ РЕЧИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается функционально-коммуникативная природа юридической речи в английском и узбекском языках. В исследовании анализируются жанровые особенности судебной речи, прагматические функции юридической риторики, а

также роль речевых актов в юридическом дискурсе. Сопоставительно изучается коммуникативное воздействие перформативных и неперформативных конструкций, используемых в обвинительной, защитительной и судебной речи. Кроме того, раскрывается связь лексико-синтаксических средств с национальными правовыми традициями и риторической культурой английского и узбекского судебного дискурса. Исследование обосновывает значение юридической риторики как функционального механизма формирования судебных решений.

Ключевые слова: юридическая речь, юридическая риторика, судебный дискурс, коммуникативная функция, речевой акт, перформативные единицы, судебное красноречие, прагматика.

KIRISH

Yuridik ritorika ilmiy adabiyotlarda huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni o‘rganish va huquqiy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish jarayonida baholovchi xulosalarni analitik jihatdan tayyorlash va ularni ishontiruvchi tarzda taqdim etish bilan bog‘liq muammolarning butun majmuasini o‘rganuvchi ilmiy fan sifatida ta’riflanadi. Yuristning professional kasbiy faoliyati insonlar bilan bevosita va tizimli muloqotga asoslanib, shaxslararo kommunikatsiyalar jarayonida amalga oshiriladi hamda institutsional ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Mazkur faoliyat, yuridik nutq orqali axborot uzatish, ta’sir ko‘rsatish va huquqiy ma’nolarni shakllantirish kabi kommunikativ-funksional vazifalarni bajaradi.

Yuridik diskursning kommunikativ xususiyatlari uning janr jihatdan differensiallangan tuzilishida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Huquqiy kommunikatsiyaning har bir janri muayyan pragmatik maqsad, institutsional shart-sharoit va adresatga qaratilgan ta’sir strategiyalari bilan tavsiflanadi. Shu bois yuridik ritorikaning janri tizimida amal qiladigan ta’sirchan mexanizm sifatida ko‘rib chiqish nazariy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Yuridik ritorikaning ta’sirchan funksiyalari yuridik diskursning turli janrlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, sud nutqida u ishontirish, argumentatsiyani mantiqiy tartibga solish va baholovchi pozitsiyani shakllantirishga xizmat qilsa, yuridik konsultatsiya jarayonida huquqiy axborotni moslashtirish, tushuntirish va adresatning qaror qabul qilish faoliyatini yo‘naltirish vazifasini bajaradi. Protsessual muloqot doirasida esa yuridik ritorika me’yoriy talablarga tayanadigan, institutsional chegaralangan va kommunikativ rollar qat’iy taqsimlangan nutqiy o‘zaro ta’sir shakli sifatida amalga oshiriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada o‘zbek, ingliz va rus olimlaridan G‘. Abdurahmonov, S. Mamajonov, J. Gibbons, K. Agata, G‘. Satimov, B. Salomov, Sh. Ko‘chimov, G. Kubitslarning ishlaridan foydalangan holda ingliz va o‘zbek yuridik ritorikasida, xususan, sud nutqida ishontirish, argumentatsiyani mantiqiy tartibga solish va baholovchi pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi funktsiyani bajaruvchi vositalar, yuridik konsultatsiya jarayonida huquqiy axborotni moslashtirish, tushuntirish va adresatning qaror qabul qilish faoliyatini yo‘naltirish kabi holatlarni ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Yuridik kasbiy faoliyat nutqiy jihatdan bir xil bo‘lmagan, janriy jihatdan esa tabaqalashgan kommunikativ tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Yurist tomonidan amalga oshiriladigan har bir kasbiy harakat muayyan nutqiy janr doirasida ifodalanib, u institutsional maqom, kommunikativ maqsad va adresat omillari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, yuridik kasb faoliyatini tashkil etuvchi asosiy janrlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Sud notiqligi – bu sudga maqsadli va samarali ta’sir ko‘rsatadigan, sudyalar va sud zalida bo‘lgan fuqarolarning ishonchini mustahkamlashga qaratilgan nutqning bir turidir. Odatda, nutq prokuror yoki ayblov nutqi va advokat yoki himoya nutqiga ajratiladi (Gibbons, 2013).

NATIJALAR

Sud nutqi yuridik kasbiy kommunikatsiyaning markaziy janrlaridan biri bo‘lib, u ishontirish, dalillarni ritorik tarzda tizimlashtirish va baholovchi pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan. Ushbu janrda yuridik ritorika argumentatsiyaning mantiqiy izchilligini ta’minlash, emotsional

ta’sirni me’yoriy darajada qo‘llash va sud muhitida adresat ongiga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida amal qiladi.

Yuridik ritorika nafaqat yuridik yoki sud jarayoni ishtirokchilari faoliyatining kommunikativ mazmunini anglash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi, balki jinoyat, uning jazolanishi hamda aybsiz shaxsning oqlanishi bilan bog‘liq amaliy va nazariy bilimlarni tizimlashtiruvchi ilmiy nazariyalar majmuasini ham ifodalaydi. Shu ma’noda yuridik ritorika jinoyatni aniqlash, aybdorlarni javobgarlikka tortish bilan bog‘liq sud amaliyoti uchun umumiy metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi va huquqiy amaliyot konseptual-nazariy jihatdan anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda asosiy e’tibor yuridik ritorikaning alohida ko‘rinishi hisoblangan sud notiqligiga qaratildi. Ma’lumki, sud notiqligi quyidagi asosiy turlarda namoyon bo‘ladi: qoralovchi (prokuror) nutqi, jamoatchilik nomidan qoralovchi nutq, oqlovchi (advokat) nutqi, jamoatchilik nomidan oqlovchi nutq hamda o‘z-o‘zini himoya qilish nutqi.

Sud jarayonida masalani hal etishga aloqador bo‘lgan tomonlar, ularning mas’ul kishilari: sudya, xalq maslahatchilari, prokuror, ichki ishlar xodimlari, advokat, jamoat oqlovchisi, jamoat ayblovchisi, guvohlar hamda sudlanuvchilar ishtirok etadi. Ana shu jarayonda so‘zlangan nutqlarning mazmuni va shakli turlicha bo‘lib, ularning barchasi sud nutqi degan umumiy tushuncha ostida birlashadi hamda protsessual vazifani bajarishda baravar ishtirok etadi (Karimov, 2014).

MUZOKARA

Sud nutqi institutsional diskursining maxsus janri sifatida nutqiy aktlarning kommunikativ-funksional imkoniyatlarini eng to‘liq namoyon etadi. Sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning har biri muayyan kommunikativ rolga ega bo‘lib, ular tomonidan qo‘llaniladigan nutqiy aktlar aniq pragmatik maqsadga qaratilgan holda amalga oshiriladi.

Jumladan, ayblov nutqida performativ nutqiy aktlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayblovchi tomonidan *“ayblanuvchi mazkur jinoyatni sodir etgan”, “jinoiy harakat to‘liq isbotlangan”* (Satimov, 1999*)* kabi ifodalar faqat axborot uzatish vazifasini bajarib qolmasdan, balki aybdorlikni yuridik jihatdan mustahkamlashga qaratilgan ta’sirchan kommunikativ harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda nutqiy akt orqali adresat sudya yoki sud hay’ati ongida muayyan huquqiy baholash pozitsiyasi shakllantiriladi.

Himoya nutqida esa noperformativ nutqiy aktlar bilan bir qatorda iltimos, shubha uyg‘otish va oqlashga qaratilgan bilvosita performativ ifodalar qo‘llaniladi. Masalan, “*ayblov dalillari yetarli emas”, “mazkur holat boshqacha talqin qilinishi mumkin”* kabi ifodalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq yoki talab shaklida berilmasa-da, sud ongiga ta’sir ko‘rsatish, ayblovni zaiflashtirish; va alternativ huquqiy xulosani ilgari surish funksiyasini bajaradi.

Sudya nutqida esa me’yoriy performativ nutqiy aktlar etakchi o‘rin tutadi. “*Sud qaror qildi”, “ayblanuvchi oqlansin”, “jazo tayinlansin”* kabi ifodalar nutqiy harakat bilan huquqiy harakatning to‘liq uyg‘unligini namoyon etadi. Bu holatda nutqiy aktning kommunikativ funksiyasi huquqiy natija bilan bevosita bog‘lanib, so‘zning institutsional kuchga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, sud nutqida nutqiy aktlarning qo‘llanilishi kommunikativ maqsad, institutsional vakolat va huquqiy oqibat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Bu esa yuridik ritorikani ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan nutqiy strategiyalar majmuasi sifatida emas, balki huquqiy qarorlarni shakllantiruvchi funksional mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sud nutqida nutq aktlari huquqiy ta’sirni ta’minlovchi asosiy kommunikativ mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek sud diskurslarida nutqiy aktlarning qo‘llanilishi umumiy pragmatik qonun qoidalarga tayanadi, biroq ularning ifoda shakli va ritorik strategiyasi til va huquqiy an’analarga bog‘liq holda farqlanadi.

Ingliz va o‘zbek sud tizimida ayblov nutqida performativ nutqiy aktlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilida ayblovchi tomonidan qo‘llaniladigan:

“The defendant committed the crime intentionally”,

“The evidence clearly proves the defendant’s guilt” (Gibbons, 2013) kabi ifodalar axborot berish bilan cheklanmay, aybdorlikni yuridik

jihatdan mustahkamlashga qaratilgan ta’sirchan nutqiy harakat hisoblanadi.

O‘zbek tilida:

*“Mazkur jinoyat **qasddan** sodir etilgan”,*

“Taqdim etilgan dalillar aybni to‘liq isbotlaydi” (Salomov, 2006) kabi ifodalar ayblov pozitsiyasini shakllantiruvchi performativ nutqiy aktlar sifatida xizmat qiladi. Har ikki tilda ham bunday ifodalar sud ongida muayyan huquqiy baholash modelini shakllantirishga qaratilgan.

Himoya nutqida esa, aksincha, bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi noperformativ nutqiy aktlar keng qo‘llaniladi. Ingliz tilida:

“There is reasonable doubt regarding the defendant’s involvement”,

“The evidence cannot be considered sufficient” (Agata, 2013) misollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etish shaklida berilmasa-da, sudning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish funksiyasini bajaradi.

O‘zbek sud nutqida bu kabi ta’sir:

“Ayblov dalillari yetarli darajada asoslanmagan”,

“Mazkur holatni boshqacha talqin qilish mumkin” kabi ifodalar orqali amalga oshiriladi. Bu yerda nutqiy akt orqali ayblovning ishonchliligiga shubha uyg‘otish asosiy kommunikativ maqsad sifatida namoyon bo‘ladi.

Sudya nutqida esa institutsional vakolatga asoslangan me’yoriy performativ nutqiy aktlar yetakchi o‘rin tutadi. Ingliz tilida:

“*The court finds the defendant guilty”,*

“The defendant is hereby sentenced to…”. (Gibbons, 2003)

kabi ifodalar nutqiy harakat bilan huquqiy harakatning to‘liq uyg‘unligini namoyon etadi.

O‘zbek tilida:

“Sud qaror qildi”,

“Ayblanuvchi aybdor deb topilsin”,

“Jazo tayinlansin” kabi ifodalar orqali nutqiy akt to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy natijani yuzaga keltiradi. Bu holatda so‘z institutsional kuchga ega bo‘lib, huquqiy voqelikni shakllantiruvchi vositaga aylanadi (Кўчимов, 1995).

Ingliz va o‘zbek sud nutqida nutqiy aktlarning qo‘llanilishi umumiy pragmatik maqsadlarga xizmat qilsa-da, ularning leksik tanlovi va sintaktik tashkil etilishi milliy huquqiy an’ana va ritorik madaniyat bilan belgilanadi. Ingliz sud nutqida aniqlik, ehtiyotkorlik va modallikka asoslangan sintaktik tuzilmalar ustuvor bo‘lsa, o‘zbek sud nutqida baholovchi leksika, sabab-natijaga asoslangan qo‘shma gaplar va ta’sirni kuchaytiruvchi konstruksiyalar keng qo‘llaniladi. Bu holat yuridik ritorikaning universal pragmatik asoslarga ega ekanini, biroq uning amaliy namoyoni tilga xos ritorik vositalar orqali shakllanishini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, ingliz va o‘zbek sud nutqida nutqiy aktlarning qo‘llanilishi kommunikativ maqsad, ritorik strategiya va huquqiy oqibat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Bu esa yuridik ritorikani sud diskursida ta’sir ko‘rsatish va qaror qabul qilish jarayonini boshqaruvchi funksional mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi (Кубиц, 2006). Sud nutqi yuridik diskursining institutsional janrlaridan biri sifatida turli kommunikativ maqsadlarga xizmat qiluvchi nutqiy harakatlarni qamrab oladi. Ingliz va o‘zbek sud nutqida ushbu janrlar umumiy pragmatik asoslarga ega bo‘lsa-da, ularning leksik tanlovi, sintaktik tuzilishi va ritorik ta’sir mexanizmlari milliy huquqiy an’analar bilan belgilanadi.

Qoralovchi (prokuror) nutqida kommunikativ maqsad ayblovni asoslash va sud ongida aybdorlik modeli shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Ingliz sud nutqida bunday ta’sir, odatda, neytral-baholovchi huquqiy leksika *“deliberately”, “offence”, “proven”* hamda aniq deklarativ sintaktik tuzilmalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, “*The defendant deliberately committed the offence, as proven by the presented evidenc*e”. O‘zbek sud nutqida esa ayblov semantikasi kuchliroq ifodalanib, “*qasddan”, “isbotlangan”* kabi leksemalar va sabab-natija munosabatini aks ettiruvchi qo‘shma gaplar orqali ta’sir kuchaytiriladi: *“Ayblanuvchi jinoyatni qasddan sodir etgan bo‘lib, bu holat taqdim etilgan dalillar bilan isbotlangan”* va h.k.

Jamoatchi-qoralovchi nutqida kommunikativ vazifa jinoyatning ijtimoiy xavfini ko‘rsatish va axloqiy baholashni kuchaytirishdan iborat. Ingliz tilida bunday nutqda metaforik va umumlashtiruvchi fe’llar *“undermines”, “threatens”* leksemalari qo‘llanilib, jamoat manfaatlariga murojaat qilinadi: “*Such behaviour undermines public trust and threatens social stability”*. O‘zbek tilida esa “*tahdid soladi”, “ishonchni susaytiradi”* kabi ta’sirchan baholovchi leksika va

parallel sintaktik konstruksiyalar orqali ritorik ta'sir ta'minlanadi: *"Bunday xatti-harakatlar jamoat ishonchini susaytiradi va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soladi"* va h.k.

Oqlovchi (advokat) nutqida asosiy kommunikativ maqsad ayblovni zaiflashtirish va shubha uyg'otish hisoblanadi. Ingliz sud nutqida bu inkor va ehtiyotkor modallikka asoslangan leksik birikmalar orqali ifodalanadi: *"There is no conclusive evidence linking the defendant to the crime"*. O'zbek sud nutqida esa inkoriy konstruksiyalar va nominativ markazlashuv ustuvor bo'lib, quyidagicha ifodalanadi: "*Ayblanuvchini jinoyat bilan bog'laydigan qat'iy dalillar mavjud emas"* va h.k. Jamoatchi-oqlovchi nutq insonparvarlik va ijtimoiy omillarga murojaat qilishga qaratilgan bo'ladi. Ingliz tilida passiv va modallikka asoslangan konstruksiyalar qo'llaniladi: Ingliz tilida: "*The defendant's actions should be viewed in the context of his difficult life circumstances"*. O'zbek tilida esa empatik leksika va shartli-baholovchi tuzilmalar orqali ta'sir kuchaytiriladi: *"Ayblanuvchining harakatlari uning og'ir hayotiy sharoitlari nuqtayi nazaridan baholanishi lozim"* va h.k. (Abdurahmonov, 2002)

O'z-o'zini himoya qilish nutqida kommunikativ maqsad shaxsiy pozitsiyani asoslash va subyektiv niyatni ishontiruvchi tarzda ifoda etishdan iborat. Ingliz tilida birinchi shaxsga xos konstruksiyalar orqali bu holat quyidagicha ifodalanadi: *"I did not intend to violate the law; my actions were misinterpreted". O'zbek tilida esa shaxsiy baholash va emotsional yaqinlikni ifoda etuvchi leksemalar qo'llaniladi: "Men qonunni buzish niyatida bo'lmaganman, mening harakatlarim noto'g'ri talqin qilingan…" kabi. (Salomov, 2014)*

Shu tariqa, ingliz va o'zbek sud nutqining janrlari kommunikativ-funksional jihatdan umumiy pragmatik maqsadlarga xizmat qilgan holda, leksik tanlov va sintaktik tuzilishi nuqtai nazaridan farqlanadi. Mazkur farqlar yuridik ritorikaning universal ta'sir mexanizmlariga ega ekanini, biroq ularning amaliy namoyoni milliy til va huquqiy madaniyat bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek sud nutqida nutqiy aktlarning qo'llanilishi umumiy pragmatik maqsadlarga xizmat qilsa-da, ularning leksik tanlovi va sintaktik tashkil etilishi milliy huquqiy an'ana va ritorik madaniyat bilan belgilanadi. Ingliz sud nutqida aniqlik, ehtiyotkorlik va modallikka asoslangan sintaktik tuzilmalar ustuvor bo'lsa, o'zbek sud nutqida baholovchi leksika, sabab va natijaga asoslangan qo'shma gaplar va ta'sirni kuchaytiruvchi konstruksiyalar keng qo'llaniladi. Bu holat yuridik ritorikaning universal pragmatik asoslarga ega ekanini, biroq uning amaliy namoyoni tilga xos ritorik vositalar orqali shakllanishini ko'rsatadi. Buni sud nutqining janrlarini ingliz va o'zbek tillarida kommunikativ-funksional tabiatini leksik va sintaktik jihatlarida kuzatish mumkin.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sud nutqida qo'llaniladigan har bir janr muayyan sintaktik qoliplar orqali institutsional va pragmatik maqsadlarni ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillarida ushbu qoliplar o'xshash kommunikativ vazifalarni bajarsa-da, ularning ritorik ifodalanishi milliy huquqiy an'ana va nutqiy madaniyat bilan belgilanadi. Bu holat yuridik ritorikaning janrga bog'liq holda shakllanuvchi, biroq funksional jihatdan barqaror tizim ekanini tasdiqlaydi.

Shuning bilan birga, yuridik nutq tilning institutsional shakllaridan biri sifatida huquqiy munosabatlarni tartibga solish, huquqiy ma'nolarni shakllantirish va ularni kommunikativ makonda amalga oshirish vazifasini bajaradi. Shu bois uning lingvistik tasnifi til tizimining umumiy qonun-qoidalari bilan bir qatorda, huquqiy diskursga xos pragmatik, funksional va janroviy xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Agata, K. (2013). *O'g'irlangan million dollar* (I. Ahmedov, Tarj.). Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. John Gibbons (2003). *Forensic linguistics: An introduction to language in the justice system*. UK: Blackwell Publishing.

3. Абдураҳмонов, Ғ., & Мамажонов, С. (2002). *Ўзбек тили ва адабиёти*. Тошкент: Ўзбекистон.
4. Кубиц, Г. В. (2005). *Профессионализация языковой личности (на примере юридического дискурса)* (Автореферат диссертации кандидата филологических наук). Челябинск.
5. Кўчимов, Ш. (1995). *Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили* (Автореферат диссертации кандидата филологических наук). Тошкент.
6. Саломов, Б. С. (2006). *Ўзбекистон адвокатларининг ҳимоя нутқлари*. Тошкент: Адолат.
7. Сатимов, Ғ. (1999). *Инглизча-русча-ўзбекча ҳуқуқий атамалар луғати*. Тошкент: Адолат.